

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.
Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

X.Mamajonov

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar 113

ADABIYOTSHUNOSLIK

X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari 118

A.Abduraxmonov

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati 122

B.To'rayeva

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari 127

N.Karimova

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi 134

P.Ro'ziboyeva, B.Karimov

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi 138

N.Avazov

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi..... 143

Sh.Axmedova

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari..... 151

N.Soatova

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati 155

Sh.Turg'unov

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida 162

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, F.Musayeva

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir..... 168

D.Ganiyeva

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi..... 171

Sh.Amonturdiyeva

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari..... 176

N.Xoshimova

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi..... 184

M.Hojiyeva

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida..... 187

V.Giyosova

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar 190

S.Ahmadaliyeva

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida..... 193

H.Saipova

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari 197

MATEMATIKA

T.Ergashev, D.Urinboyeva

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida..... 201

B.Kadirkulov, M.Jalilov

Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala 209

N.Murolimova

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala..... 214

FIZIKA - TEXNIKA

X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish 223

M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari..... 228

BOLALARGA OID MUROJAAT BIRLIKLARIGA DOIR MULOHAZALAR

ОБЗОРЫ НА ЕДИНИЦЫ ОБРАЩЕНИЯ ДЕТЕЙ

REVIEWS ON UNITS OF APPEAL FOR CHILDREN

Giyosova Vasilaxon Avazxon qizi¹¹Giyosova Vasilaxon Avazxon qizi

– Maktabgacha va boshlangich ta'lim fakulteti o'qituvchisi.

Annatsiya

Maqolada murojaat shakllari har qanday muloqotda aloqa qonunlariga muvofiq bo'lishi kerak. Murojaat shakllari to'g'ri tanlanmasa, u holda muloqot samarali bo'lmaydi. Formanovskayaning ta'kidlashicha, murojaatlar nutqiy etiketning keng doirasiga kiradi, chunki shu birliklar yordamida suhbatdosh bilan nutqiy aloqa o'rnatilgan va qo'llab-quvvatlanadi, umuman so'zlovchi hamda tinglovchining muloqot davomidagi ijtimoiy, shaxsiy munosabatlari tartibga solinishi haqida atroflicha fikrlar berilgan. Shuningdek, maqolada bolalarga oid murojaat birliklarida rus va o'zbek oilalaridagi murojaat birliklari taqqoslangan.

Аннотация

Формы заявлений в статье должны соответствовать законам общения в любом общении. Если формы заявок выбраны неправильно, то коммуникация не будет эффективной. По мнению Формановской, обращения являются частью широкого круга речевого этикета, так как эти единицы используются для установления и поддержания общения с собеседником, в целом для предоставления развернутых представлений о регуляции общественно-личностных отношений между говорящим и слушающим. Также в статье сравниваются единицы обращения детей в русских и узбекских семьях.

Abstract

The application forms in the article must comply with the laws of communication in any communication. If the application forms are not chosen correctly, then the communication will not be effective. According to Formanovskaya, appeals are part of a wide range of speech etiquette, as these units are used to establish and maintain communication with the interlocutor, in general, to provide detailed views on the regulation of social and personal relations between the speaker and the listener. The article also compares the units of appeal for children in Russian and Uzbek families.

Kalit so'z: Leksik birliklar, murojaat shakllari, muloqot, til birliklari, oila diskursi, lug'at.

Key words: Lexical units, reference forms, communication, language units, family discourse, dictionary.

Ключевые слова: лексические единицы, референтные формы, общение, языковые единицы, семейный дискурс, словарь.

KIRISH

Ma'lumki, murojaat ifodalovchi leksik birliklar uchun tan olingan asosiy kommunikativ funksiyalar aloqa va tavsiflashdir. Murojaat shakllari muloqot aktida muhim o'rin egallaydi. Murojaat ifodalovchi til birliklarining asosiy vazifasi diqqatni jalb qilish, chaqirish yoki chorlash, suhbatdosh bilan og'zaki aloqani o'rnatish, muloqot aktini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, aloqa jarayonida so'zlovchi va tinglovchining pozitsiyasining hamda shaxsiy munosabatlarini tavsiflashdan iboratdir.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ushbu birliklar nutq orqali uzilayotgan axborotni aniq yo'naltiruvchi vositalardir[1, 18].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qiyosga tortilgan turli tillardagi nutq odobi qoidalari va murojaat shakllariga sotsiolingvistik tasvir berish-ma'lum til tashuvchilari nutqida qo'llangan birliklarning stilistik xususiyatlariga va ifoda imkoniyatlariga bog'liq Z.Akbarovning[2,8] fikriga ko'ra lug'at, darslik va qo'llanmalarda tur va xillari keltirilgan undalma – murojaat shaklining ana shu tur va xillarga bo'linishidagi asoslari ko'rsatilmagan. Shu tufayli ham, undalma-murojaat shakli ma'lum omillar asosida guruhlanishi, ularning turlarga bo'linishiga aniqlik kiritish lozim, deya ta'kidlaydi

Umuman olganda, murojaat shakllari har qanday muloqotda aloqa qonunlariga muvofiq bo'lishi kerak. Murojaat shakllari to'g'ri tanlanmasa, u holda muloqot samarali bo'lmaydi. Formanovskayaning ta'kidlashicha, murojaatlar nutqiy etiketning keng doirasiga kiradi, chunki shu birliklar yordamida suhbatdosh bilan nutqiy aloqa o'rnatilgan va qo'llab-quvvatlanadi, umuman so'zlovchi hamda tinglovchining muloqot davomidagi ijtimoiy, shaxsiy munosabatlari tartibga

TILSHUNOSLIK

solinadi. Murojaat maydoni geterogen taboatli birliklarni qamrab olgan[3,8] shu sababli murojaat ifodalovchi til birliklarining har biri muloqot aktida muhim vazifa bajarishini inobatga olgan holda uning tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar qo'lami tobora kengayib bormoqda. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida murojaat shakllarining funksional-stilistik xususiyatlarini o'rganishga oid zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, u yoki bu ijtimoiy guruh tomonidan qo'llaniladigan murojaat shakllari bugungi kunda kam o'rganilgan masala bo'lib qolmoqda. Umumiy ma'noda esa muloqot jarayonida o'zaro aloqa qoidalariga muvofiq zaruriy birlik sifatida murojaatlardan foydalaniladi. Tilshunoslikda undalma deb nomlangan til birliklari keying davrda sotsiologiyasining obyekti hisoblangan ijtimoiy xususiyatga ega murojaat shakllari sifatida tadqiq etila boshladi.

Shuningdek, turli tizimdagi milliy madaniy va umumlisoniy yo'nalishda qiyosiy o'rganish ularning lisoniy, nutqiy, kommunikativ jihatdan farqli va o'xshash jihatlari hamda har bir xalqning o'zigagina xos bo'lgan milliy-lisoniy olam manzarasini kuzatish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'plab tillarda qarindoshlarga murojaat qilish yani oilada bolalarga murojaat qilishda o'xshashliklar kuzatiladi, ammo bolalarga oid murojaat shakllarida o'ziga xos farqlar mavjud. Shuning uchun ham rus va o'zbek tillarida bolalarga oid murojaat ifodalovchi birliklar tasnifida turli jihatlar hisobga olinib, aniq omillarga asoslanish zarur.

Murojaat shakllarining bu jihati oila diskursida va badiiy adabiyotda, ayniqsa, bolalarga adabiyotida yaqqol namoyon bo'lib, ota-onalar hamda yozuvchi murojaatlarni nutq akti birligidan matn yasovchi va uslubiyosita aylantiradi. Murojaat leksikonida bolalarga oid oila diskursida qo'llaniladigan murojaat ifodalovchi leksik birliklar turli jihatlaridan tasnif etilib, guruhlanadi. Aynan shu jihatlar murojaat ifodalovchi birliklarning tematik tasnifiga asos bo'ladi.

Qarindoshlik giponimlari bilan ifodalanuvchi murojaat birliklari.

Rus tili oila diskursida ota-onalar farzandlariga ko'proq *дочка, сын* qarindoshlik nomlari bilan murojaat qiladi. Ba'zan esa adresant va adresat o'rtasidagi genetik yaqinlik darajasini va erkalash mazmunini ifodalagan, aksiologik baho, asosan, subyektiv baho ifodalovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil bo'lgan murojaat birliklari qo'llaniladi. Rus oilasida ota-otanalarga o'z farzandiga sevish, erkalash va ijobiy-emotsional munosabatni ifodalashda *доченька, сынок, сына, дочурка* kabi qisqartirilgan lo'g'aviy birliklarda murojaat shakli fatik va appelyativ funksiyalar bilan birga, erkalash ma'nosinin hamda hissiy yaqinlikni ifodalab keladi. Rus tilida esa ba'zan aksiologik baho qarindoshlik giponimlariga subyektiv baho ifodalovchi qo'shimchlarni hamda murojaat birliklariga hissiy bo'yoqdir mazmunga ega so'zlar qo'shib aytish bilan ifodalanadi (*дочурка, милая*).

O'zbek tilida ota-onalar farzandlariga murojaatida asosan o'g'lim, qizim, bolam kabi qarindoshlik giponimlarini qo'llaydi. Har ikkala tilda ham oila diskursida farzandlarga murojaat qilishda ota-onalar, avvalo, neytral murojaat birliklaridan foydalanishi kuzatish mumkin. Masalan,

- *Андрей, вставай, пора в школу.*

- Oysha, akangdan darak bo'lmadi-ku? – deb so'radi oyim. (O'tkir Hoshimov "Sariq devni minib").

O'zbek tilida bolalarga oid murojaat ifodalovchi qarindoshlik giponimlariga va farzandlarining ismiga – bek, -jon, -xon, -oy, -toy, -gina kabi kichraytirish-erkalash qo'shimchalarin qo'shib o'g'iltov, qizjonim, bolajonim, bolaginam kabi erkalash shakllarni qo'shib aytadi. O'zbek ayollari nutqida o'z farzandlariga nisbatan qo'llanilgan murojaat birliklarida subyektiv bahoni kuchaytirish maqsadida egalik qo'shimchalarini qo'shib qo'llash kuzatiladi. Bu esa har bir onaning nutqiy aktida ba'zan okkozional tarzda ham ifodalanadi. Masalan, -jon qo'shimchasini qo'shish bilan qanoatlanmagan ona o'z mehrini okkozional tarzda ta'sirchan munosabatga kirishish uchun antroponim murojaat shakliga emotsional-ekspressiv tus berishda harakat qiladi: *o'giljonim, senga suyanib qolganman axir.*

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda ham bu kabi murojaat ifodalovchi til birliklarini badiiylilikni, ta'sirchanlikni va ifodaviylikni oshirishib, qahramonlarning o'ziga xos nutqini yaratish uchun faol qo'llaniladi.

Tadqiqot davomida rus va o'zbek tillarida kata yoshdagi insonlar va bolalar uchun kuchaytirilgan antroponim murojaatlarni ajratish muhim degan xulosaga keldik, chunki har ikki tilda

ham yosh guruhlarida qo'llaniladigan murojaatlarining tarkibi va shakllarining tarixiy va ijtimoiy jihatdan o'ziga xos individual xususiyatlari mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.8.
2. Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.8.
3. Сапарбаева Г.М. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (Phd) ...дисс. автореф. –Урганч, 2021. -18 б.
4. VA kizi Giyosova, NK Sabirov. FAIRY TALES OF THE RUSSIAN AND UZBEK PEOPLES (COMPARATIVE APPROACH)